

O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA YARATILGAN O‘QUV LUG’ATLARINING TURLARI

Muxiddinova Durdona Odilovna

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek lug‘atshunosligida yaratilgan o‘quv lug‘atlari va ularning turlari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ular haqida qisqacha tushunchalar, lug‘atshunoslikdagi yutuqlar bo‘yicha ma‘lumotlar mavjud. Shu bilan birga lug‘atshunos olimlarning tadqiqotlari taqqoslandi va o‘quv lug‘atlaridan ayrimlari manbalar asosida tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *o‘z va o‘zlashma qatlam, izohli lug‘at, imlo lug‘ati, omonim, sinonim, antonim, o‘zak, morfema.*

Kirish

Jahon tilshunoslari tomonidan leksikografiyaning o‘quv lug‘atchiligi sohasi rivojlangan sohalardan biriga aylandi. O‘quv lug‘atlarini ilmiy asosda o‘rganish XVII asr boshlarida birinchi ingliz leksikografi S. Jonson, XIX asr boshlarida fransuz tilshunosi J. Dyubua ishlaridan boshlandi. Yevropa va boshqa davlatlarda bu borada katta ishlar qilinayotgan bir paytda bu masalaga jiddiy e‘tibor berilmadi. Keyinchalik rus tili darsliklari va o‘quv lug‘atiga bag‘ishlangan anjumanning ikkitasi yurtimizda tashkil etilganida, tilshunolarimiz faol ishtirok etishmagani, tashabbus ko‘rsatishmagani uchun o‘zbek leksikografiyasida o‘quv lug‘atlari ishlab chiqilmadi va bu muammo haligacha davom etmoqda.

O‘quv lug‘atlari o‘quvchining yonida bo‘lib u tushunmagan so‘z va topshiriqlarni bajarishda katta yordamchi bo‘la oladi. O‘quvchi va talabalarga darslikdagi so‘zlarning ma‘no-mantig‘ini to‘liq anglash, qanday ma‘nolarda qo‘llash, qanday vaziyatlarda ishlatish to‘g‘risida katta ma‘lumot beradi. Ma‘lumot olish, til o‘rganishga yordam berish maqsadida yaratilgan har qanday janr va hajmdagi leksikografik asarga *o‘quv luga‘ti* deyiladi. O‘quv lug‘atlari hajman kichik, ma‘lum bir tartibda soha ko‘lami chegaralangan holda bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda ta‘limning barcha tarmoqlarida lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda. O‘quv lug‘atlarining yaratish tamoyillarini ishlab chiqish va ularni yaratish ta‘limning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. 2006 – 2007- yillar oralig‘ida “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan yigirmaga yaqin mavzuviy o‘quv lug‘atlari sinov tariqasida nashr etildi. Mengliyev B. M., Bahriddinova B. M. “O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv

lug’ati” (2007); Shukurov O., Boymatova B. “O’zbek tilining ma’nodosh so’zlar o’quv lug’ati” (2007); Mengliyev B., Bahriddinova B. “O’zbek tilining so’z yasaliishi o’quv lug’ati” (2007); To’rayeva U., Shodmonova D. “O’zbek tilining zid ma’noli so’zlar o’quv lug’ati” (2009); Bobojonov Sh., Islomov I. “O’zbek tilining so’zlar darajalanishi o’quv lug’ati” (2007); Hamrayeva Y. “O’zbek tilining o’zlashma so’zlar o’quv lug’ati” (2007); Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M. “O’zbek tili iboralario’quv lug’ati” (2007-2009); Nafasov T., Nafasova V. “O’zbek tilining o’quv toponimik lug’ati” (2007); Suvonova X., Turdiyeva G. “O’zbek tilining shakldosh so’zlar o’quv lug’ati” (2007-2009); Norxo’jayeva X. “O’zbek tilining eskirgan so’zlar o’quv lug’ati” (2006); Nafasov T., Nafasova V. “O’zbek tilining talaffuzdosh so’zlar o’quv lug’ati” (2008) shular jumlasidandir. O’quv lug’atlari, albatta, ta’lim sohasiga uzviy bog’liq bo’lishi, darsliklarga, albatta, moslashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O’quv lug’atlari ta’lim jarayonida ishlatilganligi uchun ham fanlar doirasida bo’lishi ushbu fan sohasidagi darsliklarga mos tushishi va hattoki o’quv lug’atlari o’zida ma’lum mashg’ulotlar va boshqotirma kabilarni o’z ichiga olishi lozim.

Muhokama va natijalar

O’quv lug’atlariga kiritilgan so’zlar qat’iy alifbo tartibida joylashtiriladi. Demak, zarur so’zni undan alifbo tartibi bo’yicha qidirish kerak bo’ladi. O’quv lug’atlari o’zida eng muhim ma’lumotlarni qamrab olgan, leksemalarning ham eng zarur jihatlarini ochib berishga qaratilgan va albatta, ifoda aniq, lo’nda va qisqa bo’lganligi bilan ham boshqa lug’atlardan farqlanadi. Chunki o’quv lug’atlari foydalanuvchiga qo’liga olgandayoq nima uchun xizmat qilishi aniq bo’lishi lozim.

Hozirda jahon o’quv lug’atchiligida kompleks o’quv lug’atlari janri mavjud. Bu turdagi lug’atlar so’zlarni faqat bir tomondan emas, balki deyarli barcha qirralarini bittada aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Bu turdagi o’quv lug’atining afzallik jihati shundaki, talaba bitta lyg’atdan foydalangan holda bir vaqtning o’zida bitta leksemaning bir nechta lingvistik xususiyatlarini o’rganishi mumkin. O’zbek tilshunosligida birinchi marta H. Ne’matov va A. G’ulomovlar “Ona tili ta’limi mazmuni” kitoblarida ona tili va tilshunoslikni o’rganishda yordamchi qo’llanmalardan biri o’quv lug’atlari ekanligini ta’kidlaganlar. O’zbek leksikografiyasida o’quv lug’atlari hozircha yagirmaga yaqin hisoblanadi.

Y. Hamrayevaning “O’zbek tili so’z izohli lug’ati”da o’zbek tilining qariyb yarmi boshqa tillardan (arab, fors-tojik, yunon, lotin rus, ingliz va boshqalar) o’zlashtirilgan va bular aralash so’zlarni hosil qilishini ta’kidlaydi. Tabiiyki, o’zbek tilidagi o’zlashtirilgan so’zlarning hammasi ham ta’lim muassasalarida o’rganilmaydi. Buni hisobga olgan muallif darsliklarda uchraydigan 3000 dan ortiq so’zlarni o’z lug’atiga kiritadi va ularga izoh beradi. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori

institutining yetakchi ilmiy xodimlari tomonidan “O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati” tuzildi. Unda 27000 dan ortiq so‘zning to‘g‘ri imloviy shakli berilgan.

“O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati”, “O‘quv tilining imlo lug‘ati” (2013), 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2020), 12 jildli “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, bir qator terminologik lug‘atlar, oliy va o‘rta maktab darsliklari, gazeta va jurnallardan to‘plangan so‘zlardan foydalanib tuzilgan. Lug‘atning tuzilishi quyidagilardan iborat:

-lug‘atning tuzilishi va tarkibi haqida;

-o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari (unlilar imlosi; undoshlar imlosi; asos va qo‘shimchalar imlosi, qo‘shib yozish imlosi, chiziqcha bilan yozish imlosi; ajratib yozish; bosh harflar imlosi; ko‘chirish qoidalari)

-lug‘atda berilgan so‘zlar imlosiga oid ba‘zi qaydlar;

-ayrim so‘zlarning yozilishi bo‘yicha lug‘at tuzuvchilarning tavsiyalari;

-lug‘atda qo‘llangan shartli qisqartmalar;

-lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi;

-lug‘at (alifbo tartibida).

Shunday o‘quv lug‘atlardan yana biri “O‘zbek tilining ma‘nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” Shukurov O., Bahridinov B. hammuallifligidagi lug‘at hisoblanadi. Lug‘at izohsiz sinonimik qator holida kengaytirilgan va undagi bosh so‘z qora rang bilan ajratilgan. So‘zlar ma‘nodoshligi alifbo tartibida nutqiy misollarsiz sinonimik qator holida berilgan:

Abadiy [a], mangu [mo‘g’], umrbod [a+f-t], toabad [f-t+a], ilalabad [a].

Abadiylashtirmoq, mangulashtirmoq.

Abas [a], foydasiz, behuda [f-t]

Abdol [a], xudojo‘y [f-t], dindor [a+f-t].

Abgor [f-t afgor], nochor [f-t], xarob [a].

Abjir, epchil, chaqqon.

Ablah [a], yarmas, razil [a].

Professor B. Mengliyev: “Lug‘atlar o‘quvchilarning ijodiy tafakku, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so‘z zahirasi vujudga keltiradi”, - deb ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, lug‘atlar o‘zida boy merosni saqlovchi manbadir. O‘zbek leksikografiyasidagi yana bir o‘quv lug‘atlardan biri N. Yo‘ldosheva, N. Musulmonovalar tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining so‘zlar birikuvchanligi o‘quv lug‘ati” (2006). Mazkur lug‘at so‘zlarning bir-biri bilan birikishdagi ma‘noviy va uslubiy munosabatlari orasidagi g‘alizliklarni bartaraf etishda, omonim, sinonim, paronym so‘zlarni farqlashda, ular yordamida so‘z birikmalari va gaplar tuzishda, so‘z boyligimizni oshirishda ko‘mak beradi.

Lug‘at alifbo tartibida tuzilgan bo‘lib, birdan ortiq ma‘noni bildirsa, rim raqamlari bilan ko‘rsatilgan:

O‘q I – 1. Kamon o‘qi;

2. Miltiq o‘qi;

3. O‘q tegmoq

4. O‘q solib qo‘yiladigan maxsus idish.

5. O‘qlarni miltiqqa joylamoq.

6. O‘qning tezligi.

O‘q II – Aravaning o‘qi.

Shol I – 1. Sholni qoqmoq.

2. Shol o‘ramoq.

Shol II – Shol qilmoq.

Shox I – 1. Terak shoxi.

2. Kesilgan daraxt shoxlari.

3. Shoxga ilinib qolmoq.

4. Shoxlarni kesib tashlamoq.

Shox II – 1. Qo‘y, ho‘kizlarning shoxlari.

2. Shoxi yo‘q hayvon.

3. Kiyik shoxini sovg‘a qilmoq.

Nutqimizda rus, arab, fors, shuningdek, yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar nihoyatda ko‘p. Ularning ayrimlari o‘zbek tilida ma‘noli qismlarga ajralish imkoniyatiga ega bo‘lsa (shaxs-iy-at, ma‘mur-iyat, ma‘naviy-at, fikr-an, shakl-an), aksariyati flektiv tabiatini to‘la saqlagan (siyosat, falsafiy, artillerist, kooperativ, mifologiya, modifikatsiya, mexanizm...) Tillarni kuzatishdan ma‘lumki, morfologik ko‘rsatkichlar yoki mustaqil ma‘noli leksemalardan, har xil qo‘shimchalarning o‘zaro birikib yangi qo‘shimcha hosil qilishdan shakllanadi. Ko‘pgian so‘zlar qo‘shilib ketishi natijasida ikkinchi qism morfemaga aylanib ketishi mumkin: gapir (gap ur), supur (suv ur), tupir (tuf ur), berkit (berk et), to‘lat (to‘la et), bo‘shat (bo‘sh et) kabi.

O‘zakni ajrata bilish, so‘z tarkibidagi tovush o‘zgarishlarini fahmlash so‘zni to‘g‘ri yozishga imkon beradi. Shu sababli so‘z tarkibi o‘quv lug‘atida ayrim so‘zlarning etimologiyasi, ya‘ni kelib chiqishiga ishora qilib ketish lozim: anglashilmovchilik (ong-la-sh-il-ma-v-chilik), sanoqsiz (son-a-q-siz), atoqli (ot-a-q-li) kabi. Bugungi kunda soddalashish, tublashish, yaxlitlashish kasb etgan va bu jarayonni boshidan kechirayotgan o‘zbekcha so‘zlar tarkibi tahlil qilinmaydi, ular bir o‘zakka teng keladi: qizg‘ish, qishloq, kungay, kunduzi, kurtak, yo‘rg‘a, yiring, qopqoq. So‘zning tarkibini ajratishda, avvalo,

o‘zak ajratilib, uning lug‘aviy ma‘nosi aniqlanadi. O‘zakka qaysi qo‘shimcha qo‘shilmasin, u har doim o‘zakdagi ma‘no bilan aloqador bo‘ladi.

Xulosa

Ta‘limda o‘quv lug‘atlaridan foydalanish ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tilning muayyan bo‘limlari uchun nafaqat lug‘at, balki har bir sinf yoki daraja uchun yaratiladi. Lug‘atlar tilga doir manbalar orasida tillararo munosabatlarni ta‘minlash, tilning grammatik qurilishini tadqiq qilish, til me‘yorlarini belgilash, jamiyat a‘zolarining milliy tafakkuri, nutq boyligini o‘stirish, ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishdagi bebaho xizmati bilan alohida ajralib turadi. O‘quv lug‘atlarini yanada takomillashtirish yuzasidan xulosalar:

1. Globallashuv davrida yosh avlodni ma‘naviy barkamol, umummilliy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash talabi o‘quv lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda.
2. O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitishda o‘quv lug‘atlardan foydalanishning samarali yo‘llarini aniqlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar

1. Begmatov E., Madvaliyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 131-132.
2. Mengliyev B., Bahriddinova B. O‘zbek tili so‘z yasalishi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
3. Mengliyev B., Bahriddinova B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
4. Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M. O‘zbek tili iboralari o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
5. Yo‘dosheva N., Musulmonova N. O‘zbek tilining so‘zlar birikuvchanligi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
6. Shukurov O., Boymatova B. O‘zbek tilining ma‘nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
7. www. ziyouz.com